

<https://doi.org/10.47100/v1i2.291>

LITERATURE - TEACHER OF THINKING: OBSERVATION AND INTERPRETATION

Shodmonova Munira Burxonovna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o`zbek tili

va adabiyoti universiteti,

O`zbek tili kafedrası katta o`qituvchisi,

pedagogika fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD)

Munira100@mail.ru; muniraburxonovna@jmail.com

+998 97 412 09 74

Аннотация. Mazkur maqolada adabiyot fanining oziga xos jihatlari, xususan, tafakkurni rivojlantirish borasidagi qarashlar bayon etilgan. Yosh avlodning shakllanishida ma'naviy sifatlarning qandayligi, uning ko'ngil istaklari yo'nalishi, dunyoqarashi va shu asosda tafakkur doirasi hamda milliy xususiyatlar hisobga olinishi yoritiladi.

Shaxs tafakkurining mustaqilligi, ruhiy olami uning aqliy va ma'naviy kamolotida ahamiyatli ekani, kitobxon dunyoqarashida hamda mustaqil fikrlashida badiiy asarlarni mushohada qilishi unga qanday ta'sir etishi, shuningdek, barkamol insonni shakllantirishdagi ahamiyati qandayligini aniqlab olish zarurati ta'kidlanadi

Калит сўзлар: adabiyot, adabiy ta'lim, tafakkur, ruhiyat, ma'naviyat, kamolot, teranlik.

Annotation. This article describes the specifics of the science of literature, in particular, the views on the development of thinking. In the formation of the younger generation, the nature of spiritual qualities, the direction of their desires, worldview, and on this basis, the scope of thinking and national characteristics are taken into account.



It emphasizes the importance of the independence of the individual's thinking, the importance of the spiritual world in his mental and spiritual development, how it affects the reader's worldview and independent thinking, as well as its role in the formation of a harmoniously developed person.

Keywords: literature, literary education, thinking, psyche, spirituality, maturity, depth.

Аннотация. В данной статье описывается специфика литературного науки, в частности, взгляды на развитие мышления. При формировании подрастающего поколения учитываются характер духовных качеств, направленность их желаний, мировоззрение, а на этой основе размах мышления и национальные особенности.

Подчеркивается важность независимости мышления человека, важность духовного мира в его умственном и духовном развитии, его влияние на мировоззрение и независимое мышление читателя, а также его роль в формировании гармонично развитой личности.

Ключевые слова: литература, литературное образование, мышление, психика, духовность, зрелость, глубина.

Ma'lumki, jamiyatning xususiyatini inson belgilaydi. Jamiyatni buyuk marralar sari yetaklash ham, tubanlik qa'riga tortish ham insonning qo'lida. Shu sabab jamiyat a'zolarining, ayniqsa, o'sib kelayotgan avlodning ma'naviy kamoloti bugungi kunda O'zbekistonda davlat ahamiyatiga molik dolzarb masalaga aylandi.

Yosh avlodda shakllanayotgan ma'naviy sifatlarning qandayligi, avvalo, uning ko'ngil istaklari yo'nalishi, dunyoqarashi va shu asosda tafakkur doirasi hamda milliy xususiyatlar hisobga olinishini nazarda tutadi.

Bugungi kunda adabiyot nazariyasi faqat mutaxassis tayyorlashga emas, balki sog'lom ma'naviyatli, hur fikrli insonni shakllantirishga xizmat qilishga qaratildi. Badiiy adabiyot, nazariy ilm bilan birga ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash



yo‘llarini tadqiq eta boshladi. Yosh avlod aqliy-ma'naviy kamolotini ta'minlashda ularning mustaqil fikrlashi qay darajada ahamiyatli ekanini asoslash dolzarb ilmiy-nazariy muammoga aylandi.

Shaxs tafakkurining mustaqilligi, ruhiy olami uning aqliy va ma'naviy kamolotida nechog‘li ahamiyatli ekan, kitobxon dunyoqarashida hamda mustaqil fikrlashida badiiy asarlarni mushohada qilishi unga qanday ta'sir etishi, shuningdek, barkamol insonni shakllantirishdagi ahamiyati qandayligini aniqlab olish zarurati tug‘ildi.

Psixologlarning ta'biricha, fikrlash, ya'ni tafakkur – odam miyasida sodir bo‘ladigan jarayon. Sezgi organlari ojizlik qilgan o‘rinlarda odam va olamning xususiyatlari tafakkur orqali o‘rganiladi. Tafakkur aqliy faoliyat, ongli xatti-harakatlarning majmui. U tevarak-atrof, voqe'lik hamda ijtimoiy muhitning bilish quroli, inson faoliyatini to‘g‘ri va samarali amalga oshirishning asosiy sharti hisoblanadi. Kishi fikrlash jarayonida o‘zi ko‘rgan, idrok qilgan, sezgan, tasavvur etgan narsa va hodisalarning to‘g‘riligi, aniqligi, haqiqiyliigi hamda ularning borliqqa munosabatini aniqlaydi, tahlil qiladi. Ayonki, adabiyot taraqqiyotini jamiyat hayotidan ayri qo‘yib bo‘lmaydi.

Adabiy asarlarni o‘rganishda tafakkur jarayoni insonning ko‘ngli, ruhiyati bilan uzviy bog‘liqlikda kechadi. Fikrlovchining ichki dunyosi qanchalik boy, dunyoqarashi nechog‘li keng, bilimi qay darajada baland bo‘lsa, uning fikrlari, xulosalari saviyasi ham shuncha asosli bo‘ladi. Asarlarda abadiy muammolarga o‘ziga xos talqin berilganligi o‘quvchi tafakkuriga xos bo‘lgan teranlik, tiniqlik, mantiqlilik, erkinlik, mustaqillik, badiiylik, ijodiylik inson fikri darajasini ko‘rsatuvchi xususiyatlardir.

Kitobxon dunyoni tafakkur orqali anglaydi, undan o‘ziga xos tarzda ta'sirlanadi, o‘zicha xulosalar chiqaradi. Mustaqil mulohaza yuritgan odam biror narsaga mehr qo‘yadi, nimanidir inkor etadi va o‘zida yaratishga, ijodga, kashfiyotga ehtiyoj sezadi. Bu ehtiyoj uni harakatga undaydi.



Asarlarni o'qib, uqib, hayot, odamlar, umuman, har bir hodisa yuzasidan o'z fikr va qarashiga ega bo'lgan, o'z xulosalarini chiqarib, ularni asoslay bilgan shaxs hech qachon o'zgalarga tobe bo'lmasligi ayon. Shuningdek, jiddiy masalalar hal etilayotganda beparvolik, loqaydlik qilmaydi, taqdirini o'zgalalar hal qilib yuborishiga yo'l qo'ymaydi. O'qigan asarlari qahramonlariga «o'xshab yoki aksincha o'xshamasdan» fikr kishisi sifatida biror faoliyatni boshlashdan oldin chuqur o'ylab ko'radi, tahlil qiladi.

Fransuz faylasufi Dekart: «Men fikrlayapman, demak men mavjudman», - degan g'oyani ilgari surgan. Bu fikr inson hayotida tafakkurni odamning borligi belgisi sifatida yetakchi o'ringa chiqaradi. Uning fikricha, hech narsa insonning mavjudligini fikrlash jarayonichalik asoslab berolmaydi. Demak, mustaqil ravishda muhokama qilish, tahlil etish, ijodiy-mantiqiy fikrlash asosiy insoniy xususiyat sifatida ajratib olingan. Fikrlash inson mavjudligi va ruhan sog'lomligining asosiy belgilaridan sanaladi. Uning mustaqilligi tushunchalar, mantiqiy birikmalar, mavjud til vositalaridan oqilona foydalanish bilan tavsiflanadi.

Tafakkur faqat adabiy ta'lim jarayonida shakllantirilmaydi. Ta'lim-tarbiya muassasalarida inson fikrlashgagina o'rgatilmaydi. U har bir ruhan sog'lom insonda tabiatan mavjud bo'lgan aqliy-jismoniy hosila. U har kimda o'ziga xos tarzda, o'z intellektual darajasida mavjud. Ta'lim-tarbiya jarayonida tafakkurning shakli, sifati, darajasini tarbiyalash, ma'lum yo'nalishini belgilash, uni sayqallash va rivojlantirish mumkin. Kitobxon fikrining ta'sirchanligi, ehtiyotkorligi, harakatchan yoxud faoliyatsizligi tafakkurning o'sish-rivojlanish jarayoni sur'ati va sifatiga bog'liq. Inson fikrlashining hissiy, obrazli, mantiqiy salmog'i tafakkur jarayonining rivojlanish sur'ati bilan qanchalik aloqador bo'lsa, uning sifat yo'nalishlari bilan ham shunchalik bog'liqdir.

Ma'lumki, yozilgan asarlarni o'qish jarayonida insonning aqliy faoliyati uning o'zi tomonidan bevosita kuzatilmaydi, balki amaliy faoliyatda shu holatga tushiriladi, boshdan o'tkaziladi. Olam torayib, odamlar muloqot imkoniyatlarining kengayishi dunyo ahlini bir-biriga yaqinlashtirar ekan, bu hol dunyoning turli



burchaklarida hayot kechirayotgan, yashash sharoiti, qadriyatlarini bir-biridan tamomila farq qiluvchi kishilarning o‘y va sezimlari va qarashlarida aks etadi.

Inson ham, millat ham bir sifatdan boshqasiga og‘riqsiz, osongina o‘tib keta olmaydi. U erkin bo‘lsa, tafakkur imkoniyati kengayadi, doimo amal qilayotgan qadriyatlariga sadoqati rivojlanib boraveradi.

Yuqorida bayon etilgan fikrlarning amaliyotdagi rivojlantiruvchisi, albatta, ona tili va adabiyot o‘qituvchisi sanaladi. Mazkur fan o‘qituvchisi boshqalardan farqli o‘laroq «ko‘ngil odami», «inson ruhiyatining kuychisi» ekanligining o‘ziyiq adabiyot o‘qituvchisi bo‘lish uchun faqat oliygoh jarayonidagi ta‘lim va kasbiy tayyorgarlikning o‘zi yetarli deb bo‘lmaydi.

...O‘qituvchilik ajoyib kasb. Men o‘qituvchilikni san‘atkorlikka o‘xshataman. Negaki, yaxshi hofiz yoqimli maqomi bilan tinglovchilarni o‘ziga jalb etadi. Hamma zavq bilan tinglasa, aytgan maqomi ham yuraklarga kuchli ta‘sir etadi. O‘qituvchi, xususan, ona tili va adabiyot o‘qituvchisi ajoyib til bilan, nozik, go‘zal, puxta nutq bilan dars bersa, sinfidagi hamma bolalarning diqqatini o‘ziga jalb etadi, bunday darsdan bolalar zavqlanadi, o‘qituvchining zavqi esa o‘qituvchiga huzur bag‘ishlaydi. Bolalar yosh o‘qituvchining atrofini o‘rab oladilar, u bilan suhbatlashgilari, uning ajoyib so‘zlarini eshitgilari keladi. Tabiiy bunday holat o‘z-o‘zidan vujudga kelmaydi, albatta....[1]

Shu nuqtai nazarda aytib o‘tishimiz mumkinki, bunga o‘qituvchi, eng avvalo, o‘z kasbini sevish, fanini ardoqlash, darsiga mas‘uliyat bilan qarash, o‘qituvchilarga nisbatan hurmat, o‘z g‘alalarini tuyg‘ularini anglash va bolaga «ma‘naviy saboqlar»dan nimadir yuqtira olish bilan erishish mumkin.

O‘qituvchi-pedagogning kasbiy mahoratiga azal-azaldan e‘tibor qaratilib, unga qo‘yiladigan talablar takomillashib, murakkablashib borgan. Ibn Sino o‘z fikrlarida, talabalarga bilim berish o‘qituvchining eng mas‘uliyatli burchi ekanligi ta‘kidlab, quyidagi fikrlarni bildirgan:

Bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo‘lish;

Beriladigan bilimni talabalar qanday o‘zlashtirib olayotganiga e‘tibor berish;



Ta'limda turli usul va shakllardan foydalanish;

Talabaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilish;

Fanga qiziqтира olish;

Berilgan bilimlarning eng muhimini ajratib o'qitish;

Bilimlarni talabalarning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish;

Har bir so'zning bolalar hissiyotini uyg'otish darajasida bo'lishiga erishish zarur.

«Badiiy adabiyot o'quvchilarning tasavvurini kengaytiradi, ularning ko'z o'ngida yangi dunyo, yangi hayot ochadi, ularni xilma-xil davralarga olib kiradi. Har xil odamlar ... bilan tanishtiradi». [2]

Adabiyot fanini o'qitish ijodkorlikni talab etadi. Mening nazarimda, har bir adabiyot fani o'qituvchisi ijodkorlik, faollikka ega. Ular uchun muayyan bir faoliyatni tashkil etishga oid ko'rsatma, tavsiya yoki hеч bo'lmaganda maslahat berishning o'zi yetarli bo'ladi

Bugungi o'qituvchi har tomonlama rivojlangan, o'z sohasi bo'yicha eng yangi pedagogik texnologiyani biladigan bo'lishi bilan birga o'quvchilarga quyidagicha bilim, malaka va ko'nikmalarni berishi darkor.

-umumning ichidan yakkani topishga o'rgatish;

-mantiqiy qonunlarga asoslanib, fikr yuritishga odatlantirish;

-ijodiy mulohaza qilib, bir necha xil fikrlar berishga o'rgatish;

-muammolarni o'zlari hal qilishga, yechimini ham izlashga o'rgatish;

-nostandart tafakkur qilishga;

-turli fan maqsadlarini uyg'unlashtirish yo'llarini puxta o'rganib, uni o'quvchilariga ham o'rgatishlari lozim.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, agar o'qituvchi shu bugungi yangiliklardan xabardor bo'lib turmasa, «shiddat bilan ilgarilab borayotgan asr farzandi» – o'quvchi muallimni uyaltirib qo'yishi tabiiy hol. «Bola tarbiyalash uchun sizga topshirilgan: shuni unutmangki, u o'smir, keyin esa yigit bo'lib yetishadi,



qarabsizki, erkak ham bo‘lib qoladi, shu boisdan uning qobiliyat takomilini kuzatib boring hamda shunga ko‘ra, tarbiya usullaringizni o‘zgartirib turing, undan hamisha yuqori turing; aks holda holingizga voy: bola siz bilan yuzma-yuz turib ustingizdan kuladi. Uni o‘rgatar ekansiz, o‘zingiz yana ham ko‘proq o‘rganing, aks holda u sizni ortda qoldirib ketadi: bolalar tez o‘shadi». [3] O‘qituvchi sinfxonada (darsda) do‘stona muhitni tashkil etishda o‘quvchining o‘quv mehnatiga haratlantiruvchi kuch bo‘lib xizmat qilishi, ish rejasida ta‘lim mazmunini insonparvarlashtirish, darsda bola huquqlarini o‘rniga qo‘yish va bolaning shaxsi sog‘lom va har tomonlama uyg‘unlashgan holda, vatanga bo‘lgan mehr-muhabbat va ongli tushunish vaziyatida o‘shishi zarurligini e‘tiborga olish, o‘quvchilarni o‘qituvchi bilan hamda bir-birlari bilan yuzma-yuz o‘tirishi, muammoli vaziyatlarni yechishda mustaqil mashg‘ulotlardan foydalanishga erishish, o‘quvchilar faolligini oshirish kabi vazifalar turadi.

Agar adabiyot o‘qituvchisi o‘quvchilarni tuyg‘ularni his etadigan, ilmga zehqli, o‘zgalar qalbini tushunadigan qilib shakllantirishga erishsa, ularga ongli ilmiy asoslangan bilim olish yo‘llarini anglatga, ko‘nglida mustaqil ravishda bilim olishga intilish istagini paydo qilsa, o‘zining jamiyat va millat oldidagi burchini bajargan bo‘ladi.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Долимов С. Маърифат фидойиси.Т.: 2007. 12-б.
2. Долимов С. Маърифат фидойиси.Т.: 2007. 3-б.
3. Белинский В.Г. Адабий орзулар. Адабий-танқидий мақолалар. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1977, 35-б.

